

## XALQ QALBIDAN JOY OLGAN SIYOSIY ARBOB

**Saibov Dilshod Kamiljonovich**

*Navoiy davlat universiteti “Tarix” kafedrasida o‘qituvchisi*

*E-mail: dilshodsaibov1989@gmail.com*

*Telefon: +99898.278.50.96*

**Annotsatsiya.** Ushbu maqolada, O‘zbekiston, shu jumladan Sobiq Ittifoq hayotida ma’lum rol o‘ynagan, siyosiy faoliyatini yuksaklik va fojia, oq va qora dog‘lardan iborat, ayni paytda xalq orasida katta hurmat bilan tilga olinadigan bir inson haqidadir.

**Kalit so‘zlar:** Sh.Rashidov, davlat va jamiyat, siyosat, siyosiy qarashlar, siyosiy arbob.

**Аннотация.** В статье рассказывается о человеке, сыгравшем значительную роль в жизни Узбекистана, в том числе бывшего Советского Союза, чья политическая карьера была отмечена как взлетами, так и падениями, белыми и черными пятнами, и который до сих пор пользуется большим уважением у народа.

**Ключевые слова:** Ш.Рашидов, государство и общество, политика, политические взгляды, политический деятель.

**Annotation.** This article is about a person who played a significant role in the life of Uzbekistan, including the former Soviet Union, whose political career was marked by both highs and lows, white and black spots, and who is still held in high esteem by the people.

**Key words:** Sh. Rashidov, state and society, politics, political views, political figure.



### KIRISH

Sharof Rashidov o‘zining noyob aql-zakovati, boy bilim va tajribasi, mehnatsevarligi va kamtarligi, yuksak insoniy fazilatlarini bilan nafaqat O‘zbekistonda, balki uzoq-yaqin o‘lkalarda ham katta obro‘-e’tibor qozongan edi. Bu ulug‘ inson, sobiq mustabid tuzum davrida turli tazyiq va sinovlarga bardosh berib, xalqimiz va millatimizga

sadoqat bilan, halol va fidokorona xizmat qildi. 1959-yil 15-martda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kompartiyasi MKning plenumida 42 yoshli Sharof Rashidov O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi ekretari etib saylanadi. Unga qadar Sh.Rashidov O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi sifatida 9 yildan buyon ishlab kelayotgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-2854-sonli qarorida Jizzax shahrida uning xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik majmuasini barpo etish va haykalini o‘rnatish belgilangan edi.

Qisqa vaqtda shahar markazida mazkur majmua va haykal bunyod etildi. Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi doirasida ushbu haykalning ochilish marosimi bo‘ldi. Davlatimiz rahbari Sharof Rashidovning xalqimiz manfaatlari yo‘lidagi ulkan xizmatlari haqida so‘zladi. Sharof Rashidov oddiy xalq orasidan chiqqani, noyob aql-zakovati, mehnatsevarligi va kamtarligi bilan katta obro‘-e‘tibor qozongani, xalqimizga sadoqat bilan halol xizmat qilganini ta’kidladi.

## ASOSIY QISM

Sharof Rashidov Oktabr inqilobidan bir kun oldin Jizzaxda, dehqon oilasida dunyoga kelgan Samarqanddagi O‘zbek Davlat Universitetining filologiya fakultetini (1941), BKP (b) MK qoshidagi Butunittifoq Partiya Maktabini (BPM) (1948, sirtqi) bitirgan. Jizzax pedagogik texnikumini bitirgan. 1935-yildan o‘rta maktabda o‘qituvchilik bilan shug‘ullangan. 1937–1941-yillarda Samarqand viloyatining “Lenin yo‘li” gazetasida ma’sul kotib, ma’sul muharrir o‘rinbosari, gazeta muharriri lavozimlarida ishlagan. 1941–1942-yillarda Sovet Armiyasi tarkibida Ikkinchi Jahon urushida qatnashgan. O‘zbekistonga sovet-olmon frontining yaradorlari bilan qaytgan. 1943–1944-yillarda “Lenin yo‘li” gazetasida muharrir. 1944–1947-yillarda O‘zbekiston KP(b) Samarqand viloyati qo‘mitasi kotibi. 1947–1949-yillarda “Qizil O‘zbekiston” respublika gazetasida ma’sul muharrir.

Sharof Rashidov o‘z ajali bilan o‘lganmi yoki o‘z joniga qasd qilganmi, yoxud o‘ldirilganmi, degan savollar oqimi hali-hanuz to‘xtagani yo‘q. Faqat bir narsa- Sharof Rashidovning o‘limiga-paxta, aniqrog‘i o‘sha mash‘um “paxta ishi” sabab bo‘lganini hech kim inkor etmaydi. “Ryazan mo‘jizasi”. 1982-yildan boshlab, iqtisodiy va korruptsiyaga oid jinoyatlar yuzasidan O‘zbekiston SSRda olib borilgan “paxta ishi”dan Sharof Rashidovning xabari bormidi yoki yo‘q? Mana shu qo‘shib yozishlar masalasi aslida qayerdan paydo bo‘lgan?

O‘zbekiston Madaniyat vazirligi Sharof Rashidovga tegishli buyumlarni xarid qiladi. Sharof Rashidovning o‘limiga oydinlik kirituvchi yuqoridagi savollarga javob tarzida internet makonida keltirib o‘tilgan tarixiy faktlardan birini e‘tiboringizga havola

qilamiz. ...1957-yilning may oyida Butunittifoq qishloq xo‘jaligi xodimlari kengashida ishtirok etgan KPSS MK bosh kotibi Nikita Xrushev o‘zining “qaynoq nutqi” davomida: “asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarda Amerikaga yetib olamiz va undan o‘zib ketamiz” degan shiorni e‘lon qiladi.

Xrushchev uch yil ichida go‘sh, sut va yog‘ mahsulotlarini ishlab chiqarishda Amerikani ortda qoldirishga bel bog‘lagan edi. Tabiiyki, yetakchining ushbu tashabbusi darhol “quyi rahbarlar” tomonidan “olqishlar” bilan qarshi olinadi. Ayniqsa, Ryazan viloyati partiya tashkilotining birinchi sekretari Aleksey Larionov o‘zgacha shijoat namoyish etib, omma oldida 1959-yilda davlatga go‘sh yetkazib berish hajmini uch barobar ortig‘i bilan bajarishga va‘da beradi.

Va‘da va‘daligicha qolib ketar edi ham balki... Ammo Larionovning so‘zlarini “Pravda” nashri butun Rossiyaga yoyib yuborgach, kotib ortga chekina olmay qoladi. O‘z og‘zi bilan bergan va‘da - olamshumul rejani bajarish uchun Larionov tez fursatda hatto sog‘in sigirlarni ham so‘ydirtirishga buyruq beradi. Bu qarori bilan u Ryazan viloyatidagi kolxozlar kelajagini qurbon qilgan edi.

Jizzaxda Sharof Rashidov byusti ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Sal o‘tib esa omadsiz-zarbdor ishchi qora mollarni sotib olib kelishlari uchun o‘z vakillarini qo‘shni viloyatlarga yubora boshlaydi. Ish shu darajaga borib yetadiki, qo‘shni regionlarda mol o‘g‘irliklari holatlari haddan ortib ketadi. Oxiroqibat, 1959-yilda Ryazan viloyati yolg‘on-yashiqlar bilan bo‘lsa ham go‘sh bo‘yicha rejani bajaradi. Larionov fursat o‘tmay shohsupaga ko‘tariladi - u Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvoni bilan taqdirlanadi. Lekin qahramonning quvonchi uzoqqa cho‘zilmaydi. Kelasi yilga kelib viloyatda qora mollar soni 70%ga qisqaradi, hudud moliyaviy jihatdan tang ahvolda qoladi. Go‘sh va don ishlab chiqarish darajasi 1958-yilgidan ham pastroqqa tushib, endilikda Moskvadan ishning haqiqiy ahvolini yashirishning iloji qolmagandi.

Tergov ishlarini o‘tkazish uchun Moskvadan maxsus komissiya tashrif buyurgach, Larionov ish kabinetida o‘zini otib o‘ldiradi. Larionov tomonidan amalga oshirilgan afera tarixga “Ryazan mo‘‘jizasi” nomi bilan kiritilgan.

Keraksiz bellashuv oqibatlari “Endi esa tasavvur qiling, - deydi yuqoridagi singari holatlarga izoh berish istagida Sadullo aka - yuqoridan, ya‘ni Kremldan buyruq kelyapti: deylik “besh kun muhlat” bilan “plan” ham qo‘yilyapti, lekin hech kim bu qanday amalga oshirilishi haqida aytmagan. Chunki yuqoridagilarga faqat natija kerak edi. Respublika kotiblari Bosh kotibga reja bajarilgani haqida bayonot berishlari, Bosh kotib esa “bizda falon miqdorda paxta, go‘sh va yog‘ bor”, deya butun dunyoda aytishi kerak edi...

“Tangalar mingta edi, Abdujabbor!” yoxud Gdlyan va Ivanov haqida yana bir hikoya

Shu o‘rinda, “XX asr: Taqdirlarda aks etgan tarix” kitobidan iqtibos keltiramiz: “...70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab qo‘shib yozish chiqib bo‘lmas xalqaga o‘xshab qolgan edi. Rejani bajarmagan rahbar ishdan bo‘shatilardi, demak, amalda qolish uchun qo‘shib yozish, kattaroq amalga ko‘tarilish uchun esa ko‘proq qo‘shib yozish kerak bo‘lardi”.

SSSR va Amerika o‘rtasidagi o‘zaro sovuq urush va hech kimga keraksiz bellashuv - mana shunday fojiali oqibatlarni keltirib chiqardi.

Ushbu bellashuvning “aks-sadosi”ni O‘zbekistonda ham ko‘rdik.

O‘zi xizmat qilgan tizim qurboni Sharof Rashidov tekshiruvlar boshlanishini bilgan, - gapida davom etadi suhbatdosh. - Moskva shahrida yirik paxtani qayta ishlash zavodlari rahbarlari qo‘shib yozish holatlari bo‘yicha qo‘lga tushgach, O‘zbekiston SSR Birinchi kotibiga “Biz O‘zbekistonda tekshiruv o‘tkazamiz”, deb aytishgan. Sharof Rashidovich bunga monelik qilmagan, aksincha, “tekshirishlaringiz mumkin”, deb aytgan va shu bilan maxsus komissiya Buxoroga kelgan.

Sharof Rashidov siyosiy arbob sifatida jahonda qanday obro‘ga ega bo‘lgan? - Xos soqchi xotiralari

Bu yerda nega Sharof Rashidov monelik qilmagan degan savol tug‘ilishi mumkin. Polkovnikning so‘zlariga ko‘ra, o‘sha davrda ba‘zi bir respublika va shaharlarda shov-shuvli jinoyatlarga dahldor bo‘lgan “ish”lar fosh etilayotgani haqida xabarlar e‘lon qilinib borgan. “Paxta ishi”ga qadar, Krasnodar o‘lkasi birinchi sekretari bilan bog‘liq “Medunov ishi”, Moskvadagi “Yeliseyev gastronomi” singari shov-shuvli jinoiy ishlar bo‘lib o‘tgan - bu tizim butun sovet ittifoqini qamrab olgan edi”, - qo‘shimcha qiladi suhbatdosh.

Sadullo akaning aytishicha, albatta, “paxta ishi”da oshirib yuborishlar, noqonuniy harakatlar juda ko‘p bo‘lgan. Aks holda oxir-oqibat Siyosiy byuro ham, SSSR Oliy prezidiumi kengashi ham bu ish noto‘g‘ri bo‘lganligini tan olmasdi. Sharof Rashidovich o‘lganligidan foydalanib 1989-yilgacha bu ish davom ettirilgan bo‘lsa, Moskvada demokratiya paydo bo‘lgach, “paxta ishi” bekor qilinib, Gdlyan va Ivanovlar esa hatto mansablaridan haydab solingan...

“Men shu yerda bir gapni aytib o‘tmoqchiman, “paxta ishi”da Sharof Rashidovichni qoralab, uni sal qolsa “marionetka”ga chiqarmoqchi bo‘lganlarning 16 hammasi uydirmalarni yozishgan. Chunki oxir-oqibat Sharof Rashidovning o‘zi ushbu tizim qurboni bo‘ldi. Sharof Rashidovich bu tizimni o‘zgartira olmasdi. Uni o‘zgartirish uchun, Kremlda ham hammasini o‘zgartirish kerak bo‘lib, u yerdagilar esa o‘zgarishni xohlamasdi. Shu bois, tizimdagi bor kamchiliklarni Sharof Rashidovning, ustiga ustak - marhum Sharof Rashidovning yelkasiga ag‘darish, bu - o‘zbekona tilda aytganda-gunoh”, - deya suhbatga yakun yasadi Sadullo Muhammadqulov.

Ha, buyuk inson Sharof Rashidov O‘zbekistonga qaryib 25 yil rahbarlik qildi. Afsus, Sh.Rashidov respublikamizni uzoq boshqarsada, uning o‘zi uzoq umr kechira olmadi.66! Bu hozirgi davr uchun hech quvonadigan umr emas. O‘zbekistondek katta respublikaga, ko‘p millatli o‘lkaga chorak asr yetakchilik qilish - bu so‘zdagina oson, lekin amalda-chi? Axir Sharof Rashidovning O‘zbekistonga rahbar bo‘lgan 1959-yilning martidan boshlab N.Xrushevdek beqaror davlat boshlig‘i bilan ishladi. 1964-yilning oktabridan esa “mo‘tadil stalinchi” L.Brejnev bilan 18 yil, o‘ta qattiqqo‘l va O‘zbekistonga shafqatsizlarcha munosabat bildira boshlagan Yu.Andropov bilan esa qaryib bir yil faoliyat ko‘rsatadi.

Bugungi kunda Sh.Rashidov haqida ko‘p yozilmoqda. Maqolalar mualliflarining aksariyati sobiq rahbar bilan birga ishlaganlar, u bilan uchrashganlar yoki Sharof Rashidovning adabiyot sohasidagi ishlarini yoritgan olimlarning xotiralaridir. Bu juda ham yaxshi. Chunki 1984-yilning iyunidagi O‘zbekiston Komunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasining XVI plenumidan so‘ng marhum rahbarga tosh otish boshlandi. Bu ayniqsa, 1986-yilning yanvar-fevral oylaridan so‘ng rosa avjiga chiqdi. Sharof Rashidovning “sehrli ta’siri ostida” qolganlar uning qabriga, ruhiga nayza tiqib, mashq qilishdi.

70-yillar boshlarida Sh.Rashidovning muruvvati va shaxsan aralashuvi oqibatida KPSS safida qolgan, tez orada xorijga - Seylonga (hozirgi Shri-Lanka) elchi qilib jo‘natilgan Rafiq Nishonov rahmatli bo‘lib ketgan insonni qoralashda eng oldingi o‘ringa chiqib oldi. 1985-yil O‘zbekistonga qaytib kelgach, biroz vaqt tashqi ishlar vaziri lavozimida ishladi. 1986-yil dekabrda R.Nishonov eng yuqori lavozimlardan biri - O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi vazifasini egalladi. Ana shu kunlardan boshlab Sharof Rashidovga “jazava” misli ko‘rilmagan darajga yetdi. Rafiq Nishonov esa birinchi bo‘lib “rashidovchilik” iborasini qo‘lladi. Bu sobiq markazdagilarga maqul bo‘lib, ular ham Sh.Rashidovga qarshi boshlangan hujumlarda ishtirok etdilar. Markaziy matbuotda “rashidovchilik” iborasining qo‘llanilishi odatiy holat bo‘lib qoldi.

Qanday munosabatda bo‘lishimizdan qat’iy nazar, aynan Sharof Rashidov davrida Toshkent qaytadan bunyod bo‘lganligini va Sharqdagi eng yirik shaharlardan biriga aylanganligini alohida ta’kidlash kerak. 1977-yili bu yerda ilk bor metropolitan ishga tushdi. “O‘zbekiston”, “Chorsu”, “Sayohat” kabi mehmonxonlar, Xalqlar Do‘stligi saroyi va boshqa ulkan koshonalar ham aynan shu davrda bunyod etildi.

## XULOSA

O‘zbek xalqining ezgu nomini ulug‘lash, uning ajoyib xislatlarini butun dunyoga ko‘rsatish uchun Rashidov qo‘lidan kelgan barcha ishlarni qildi. Shu bois uning ishlari, katta rejalari odamlarning ko‘nglida aks sado berdi, u ayni shu bois umumxalq

muhabbatini qozondi. Mazkur tantanalar munosabati bilan biz xalqimiz, butun diyorimiz uchun zarur ayrim xulosalar qilishimiz kerak.

Birinchidan, Sharof Rashidovning nomini yomonotliq qilish kampaniyasi nafaqat uni davlat arbobi sifatida qoralashga, balki butun mamlakat va xalqni badnom qilishga qaratilgandi. Gʻanimlar gʻarazly maqsadlariga qisman erishdi - ular boshqa xalqlarni “oʻzbeklar ishi”, “paxta ishi” kabi uydirmalarga qisqa vaqtga boʻlsa ham ishontira oldilar. Biroq bu boʻhtonning ham odatdagidek umri qisqa boʻldi. Oʻzbek xalqi qanday fazilatlarga ega va qanday sharaflilarga qodir ekanini bugun butun dunyo koʻrib turibdi. Bugungi kunda Sharof Rashidov nomini oqlar ekanimiz, bunda oʻzbek xalqining shaʼnidagi dogʻlarni tozalash boʻyicha kamtarona, lekin oqilona katta ishning bir boʻlagini koʻrishimiz zarur.

Ikkinchidan, xalq shaʼnini bulgʻashda bizning gʻanimlarimiz juda makkorona yoʻl tutdi. Bu kampaniyani oʻzbek xalqi ichidan yetishib chiqqan yuqori martabali kishilarning, shuningdek, boshqa odamlarning qoʻllari bilan amalga oshirishdi. Bu jirkanch ish xalqimiz oʻrtasiga raxna solish uchun qilingandi. Yaxshiyamki, biz buni oʻz paytida payqab qoldik. Natijada millatimiz vakillarini yaxshi-yomonga ajratmadik. Lekin haqiqiy aybdorlarni fosh qildik.

Uchinchidan, yaqin oʻtmishdan olinadigan uchinchi saboq shundan iboratki, biz koʻrkoʻrona, soʻzsiz itoat qilish illatidan imkon boricha tez xalos boʻlishimiz kerak.

Toʻrtinchidan, respublikamiz uzra mustaqillik shabadalari kezib yurgan bugungi kunda oʻz Vatanimizni oʻzgalar ixtiyoriga berib qoʻymaymiz. Oʻz odamlarimizning taqdiri uchun oʻzimiz javobgar ekanimizni yana ham teran anglab olishimiz zarur.

Beshinchidan, 80-yillardagi qatagʻonlar chogʻida tuhmatchilarning oldida bosh egmagan hamda oʻzining va xalqning or-nomusini mardona himoya qilgan odamlarga oʻzimizning samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Uylaymanki, tarixchilarimiz, adabiyotchilarimiz, matbuotimiz mazkur mard odamlarning ism-sharifi va timsollarini kelajak avlodlar uchun abadiylashtirishlari kerak.

Oltinchidan, hayotda soʻz va ish birligi, tarixiy adolat borligiga, yoshlarni ishontiraylik.

Nihoyat, Sharof Rashidovga nisbatan qilingan nohaqlikni toʻgʻrilaylik, tarix oldida, kelajak avlodlar uchun bu insonga munosib izzat-hurmatni tiklaylik. Ayni paytda oʻz yaqinlariga tuhmat qilgan, oʻz xalqini sotgan, mamlakatining shaʼniga qora chaplagan kimsalar ham munosib bahosini olsin va tarixdagi oʻz oʻrniga qoʻyilsin. Agar shunday qilsak, oʻzbek xalqiga xos xislatni yana bir bor namoyish qilgan boʻlamiz. Ajdodlarimizning barhayot ruhi, qolaversa, kelajak avlodlar oldida boshqacha yoʻl tutishga haqqimiz yoʻq. Bu - oʻzbek xalqining irodasi!

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Жиззах шаҳрида Шароф Рашидов ҳайкаlining очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // “Халқ сўзи” 2017 йил 7 ноябрь.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-2854-sonli qarori // <https://lex.uz.does/-4921779>
3. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt tarqqiyoti va xalq faravonligining garovi”. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017, 98-bet.
4. Karimov Sh. “G‘alabaga qo‘shilgan hissa” – T., O‘zbekiston, 1990. 67-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T., “Sharq”, 1998, 129-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T., “Sharq”, 1998, 98-bet.